

SCIENCEZONE

ONLINE SCIENTIFIC
CONFERENCES

Conference

On Legal Science

No.3 (3)

2024

12.00.00 – YURIDIK FANLAR – LAW

<i>Xusanova Muxlisa Xayrullo qizi</i> KORPORATIV HUQUQIY MUNOSABAT ISHTIROKCHILARI TOMONIDAN HUQUQLARNI SUISTE'MOL QILINISHINING SHAKLLARI VA OQIBATLARI	3
<i>Xudoyorov Fayzullo Sayfulla o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYA INSTITUTLARINI SOLIQQA TORTISH: MUAMMOLAR, TAKLIFLAR VA XALQARO TAJRIBA	8
<i>O'razbayev Laziz Shuxrat o'g'li</i> MAMLAKATIMIZDA HAMDA XORIJIY DAVLATLARDA DAVLAT BUYURTMASI ASOSIDA YARATILGAN SANOAT MULKI OBYEKTLARINING MUHIM AHAMIYATI	15
<i>Mutalov Oybek Bahrom o'g'li</i> SUN'IY INTELLEKTNING SUD TIZIMIDA QO'LLANILISHI: IMKONIYATLAR VA XAVF-XATARLAR	25
<i>Yashnarbekov Otaboy Yashnarbekovich</i> LEGAL FRAMEWORK FOR TELEMEDICINE CONTRACTS: BALANCING CIVIL AND LABOR LAW ASPECTS IN UZBEKISTAN	30
<i>Nazarov Azizjon Taxirdjanovich</i> LEGAL NATURE AND CLASSIFICATION OF CRYPTOCURRENCY EXCHANGE CONTRACTS: A COMPARATIVE ANALYSIS	49
<i>G'ulomov Shohruh Islomjon o'g'li</i> META MAKONDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MUAMMOLARI	70

KORPORATIV HUQUQIY MUNOSABAT ISHTIROKCHILARI TOMONIDAN HUQUQLARNI SUISTE'MOL QILINISHINING SHAKLLARI VA OQIBATLARI

Xusanova Muxlisa Xayrullo qizi | muxlisa3459@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti magistri

Annotatsiya: Korporativ huquqiy munosabat ishtirokchilari tomonidan huquqlarni suiste'mol qilinishining oqibatlarini va uning natijasida vujudga keladigan korporativ nizolarning huquqiy tabiati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: huquqni suiste'mol qilish, korporativ shantaj, javobgarlik, subsidiary javobgarlik, yirik bitimlar.

FORMS AND CONSEQUENCES OF ABUSE OF RIGHTS BY PARTICIPANTS IN CORPORATE LEGAL RELATIONS

Khusanova Mukhlisa Khayrullo qizi

Master of Law, Tashkent State University of Law

Abstract. The consequences of abuse of rights by participants in corporate legal relations and the legal nature of corporate disputes are analyzed.

Keywords: abuse of rights, corporate blackmail, liability, subsidiary liability, major transactions.

Korporativ huquqiy munosabatlar subyektlariga nisbatan qo'llaniladigan javobgarlik yuridik javobgarlikning bir turi bo'lib, u o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ba'zi mualliflar korporativ javobgarlikning xususiyatlarini uning maqsadlari, subyekt tarkibi, javobgarlikni o'rnatish manbalari, shuningdek, javobgarlik asoslari va shartlarining ayrim xususiyatlari bilan tasniflaydilar. Adabiyotlarda korporativ munosabatlarda huquqni suiste'mol qilish qanday harakatlarga asoslanganligiga qarab:

- korporativ munosabatlarda huquqni suiste'mol qilish, bu huquqni suiste'mol qilgan korporativ munosabatlar ishtirokchisi uchun fuqarolik javobgarligini keltirib chiqaradigan harakatlar;

- korporativ munosabatlarda huquqni suiiste'mol qilish, bu huquqni suiiste'mol qilgan korporativ munosabatlar ishtirokchisi uchun ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladigan harakatlar;

- korporativ munosabatlardagi huquqni suiiste'mol qilish, bu huquqni suiiste'mol qilgan korporativ munosabatlar ishtirokchisi uchun jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladigan harakatlar turlariga ajratiladi[1].

Korporativ huquqlarni suiiste'mol qilishning o'ziga xos shakllaridan biri greenmail yoki korporativ shantaj misolida tahlilni davom ettiramiz. **Korporativ shantaj (Greenmail)** – bu xo'jalik jamiyatining boshqaruv jarayoniga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishga ruxsat bermaydigan paket aksiyalar (ulushlar)ga ega aksiyador (ishtirokchi)lar tomonidan o'zlarining korporativ huquqlarni suiiste'mol qilish yo'li bilan jamiyatga o'z aksiya (ulush)larini nazorat qiluvchi aksiyador (ishtirokchi) larga yoki aksiyadorlik jamiyatining o'ziga oshirilgan narxlarda sotish yoki ko'rsatilgan shaxslardan boshqa mol-mulknini olish (aksariyat hollarda xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish va hokazo bitimlar ko'rinishida) maqsadida jamiyat faoliyatiga sezilarli darajada to'sqinlik qilish[2].

Uning mazmunini yanada oydinlashtiradigan bo'lsak, bu minoritar aksiyadorlar tomonidan amalga oshiriladigan tovlamachilik usuli bo'lib, korporatsiyaga qarshi insofsiz harakatlar qilish bilan tahdid qilib, o'zlariga tegishli bo'lgan aksiyalarni oshirilgan narxda qaytarib sotib olish talabi yoki boshqa shaklda o'z manfaatlari yo'lida muayyan harakatlarni sodir etishga majbur qilishni tushunish mumkin[3]. Bu holatda minoritar aksiyadorlar mavjud qonunchilikdagi bo'shliqlardan o'z manfaatlari yo'lida foydalanadilar.

Ushbu muammoli vaziyatni o'rganish jarayonida savol tug'ilishi mumkin: *“greenmail” mudofaami yoki qarshi harakat?* Qonunchilikda minoritar aksiyadorlarga bir qator huquqlar taqdim etilishi, garchi ushbu huquqlar ularning huquq va manfaatlari himoya qilishga qaratilgan bo'lsada, oxir-oqibat ularning o'z huquqlaridan foydalanishi butun korporatsiya faoliyatini sezilarli darajada murakkablashtirishi mumkin[4].

*“Greenmail”*ning qay tarzda harakatga kelishini ochib beradigan bo'lsak: manfaatdor shaxs yirik kompaniyaning juda kam miqdordagi ulushini sotib oladi va shu bilan minoritar aksiyador maqomiga ega bo'ladi, keyinchalik u ulushini haqiqiy qiymatdan sezilarli darajada oshib ketgan narxda sotib olishni taklif qiladi. Aksariyat hollarda bunday takliflar ko'pchilik aksiyadorlar tomonidan rad etiladi. Minoritar aksiyador dastlab doimiy ravishda aksiyadorlarning navbatdan

tashqari umumiy yig'ilishlarini o'tkazishni talab qiladi, korporatsiyaning faoliyati, boshqaruv organlari va yirik aksiyadorlariga nisbatan tekshiruvlar olib borish, korporatsiya faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni muntazam talab qilish, ommaviy axborot vositalarida aksiyadorning, shuningdek tashkilotning ishchanlik obro'si va qadr-qimmatini kamsituvchi ma'lumotlarni tarqatish orqali axborot hujumlaridan foydalanish kabi harakatlari bilan jamiyat boshqaruv organlarini jalb qilib, uning aksiyalarini har qanday narxda sotib olishga undovchi holatga olib keladi. Buning oqibatida korporatsiyaning faoliyat yuritishini jiddiy tarzda qiyinlashtirib boradi [4].

Xo'sh minoritar aksiyador tomonidan qaysi korporativ huquqlarning suiiste'mol qilinishi mumkin? Yuqorida korporativ huquqlar mulkiy, boshqaruv-tashkiliy va imtiyozliturlarga bo'linishini aytib o'tdik. Korporativ shantaj jarayonida ular orasidan eng asosiy quyidagi huquqlar suiiste'mol qilinishi mumkin:

- aksiyadorlik jamiyati to'g'risida axborot olish huquqi;
- aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish huquqi;
- aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi qabul qilgan qaror ustidan sudga shikoyat qilish huquqi;
- aksiyadorlik jamiyati tomonidan tuzilgan bitimlar yuzasidan sudga shikoyat qilish huquqi.

Korporativ shantaj tushunchasi qonun hujjatlarida mavjud bo'lmaganidek minoritar aksiyadorning ushbu harakatlarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi ***"Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunida*** javobgarlik masalasi belgilanmagan. Bunda qo'llanilishi mumkin bo'lgan chora boshqa aksiyadorlar tomonidan mazkur aksiyador tomonidan yetkazilgan zararni talab qilish huquqi bo'la oladi. Ushbu holatni milliy qonun tizimimizga ko'ra MCHJ ishtirokchisi talqinida ko'radigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining **"Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunining 8-moddasida** ketirilganidek - jami ulushlari jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) kamida *o'n foizini* tashkil etadigan jamiyat ishtirokchilari korporativ shantajni sodir etgan shaxsga nisbatan o'z majburiyatlarini qo'pol buzayotgan yoxud o'z harakatlari (harakatsizligi) bilan jamiyatning faoliyat ko'rsatishiga imkon bermayotgan yoki

uni jiddiy tarzda qiyinlashtirayotgan ishtirokchi sifatida jamiyatdan sud tartibida chiqarilishini talab qilishga bo'lgan huquqini qo'llash mumkin.

Huquq tizimiga ko'ra korporatsiyalar boshqaruv organlarining tuzilishi va vakolatlari bir-biridan farq qiladi. Qoida tariqasida, kompaniyaning boshqaruv organlari tuzilmasini tashkil etish va ularning vakolatlarini aniqlash jamiyat tashkil etilganda, ustavda mustahkamlab qo'yiladi va uning ishtirokchilari soniga, kompaniyaning moliyaviy imkoniyatlariga, kompaniyaning boshqaruv organlari tomonidan korporativ munosabatlar huquqini suiiste'mol qilishdan istalgan himoya darajasi va boshqa bir qator omillarga asoslanadi. Shunday ekan, korporatsiya boshqaruv organlarini ham huquqlarni suis'temol qilishning subyektivi sifatida tahlil qilishimiz mumkin. Bunda ahamiyat berishimiz lozim bo'lgan jihatlardan biri shuki, agar korporatsiyaning o'zi tomonidan korporativ huquqlarni suiiste'mol qilish fakti mavjud bo'lsa, aslida u o'z organlari orqali bunday harakatlarni amalga oshiradi. Amalda, bu organlarga ko'pincha korporatsiya a'zolari kiradi, ular subyektiv huquqlarining funksional chegaralaridan oshib, korporativ huquqlarini suiiste'mol qiladilar. Korporativ boshqaruvda jiddiy muammolardan biri boshqaruv funksiyalarini bajaruvchi shaxslarga nisbatan real yuridik javobgarlikning mavjud emasligidir. O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 81-moddasida kuzatuv kengashi a'zolarining, jamiyat direktorining, boshqaruv a'zolarining, ishonchli boshqaruvchining javobgarligi belgilangan, ammo ushbu moddada belgilan javobgarlik holatlari boshqaruv organlarining barcha faoliyatdagi hamda yuzaga kelgan muammolardagi javobgarlik holatlarini to'liq ochib bermaydi, lekin unga ko'ra jamiyat kuzatuv kengashining a'zolari, jamiyat direktori va boshqaruv a'zolari, shuningdek ishonchli boshqaruvchi o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda jamiyatning manfaatlarini ko'zlab ish tutishi hamda belgilangan tartibda javobgar bo'lishi lozim. Agar ushbu modda qoidalariga muvofiq bir nechta shaxs javobgar bo'lsa, ularning jamiyat oldidagi javobgarligi solidar javobgarlik bo'ladi. Jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari, boshqaruv a'zolari ular ovoz berishda ishtirok etmaganliklari yoki qarshi ovoz berganliklari uchun qonunchiligimizga ko'ra javobgar hisoblanmaydilar.

Yana bir jihati borki, agar jamiyatning ijroiya organi tomonidan yirik bitim yoki affillangan shaxslar bilan bitim tuzish tartibi buzilganligi natijasida jamiyatga zarar yetkazilgan bo'lsa va bunda jamiyat direktorining yoki boshqaruv a'zolarining yoxud ishonchli boshqaruvchining aybi qonunchilikda belgilangan tartibda isbotlansa, jamiyatning kreditorlar oldidagi qarzdorligini qoplash uchun uning mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda jamiyatning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgar bo'ladi. Demak, qonunchiligimizga ko'ra yirik bitimlarni tuzish natijasida xo'jalik jamiyatiga zarar yetkazilgan bo'lsa va jamiyatning mol-mulki yetkazilgan zararni qoplash uchun yetarli bo'lmasa ushbu bitimni tuzishda ishtirok etgan boshqaruv organing aybi isbotlangan holatlardagina u javobgar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, korporativ huquqiy munosabat ishtirokchilari doirasi juda keng bo'lib, ular tomonidan amalga oshiriladigan huquqlarni suiiste'mol qilish oqibatlarini minoritar aksiyadorlar va boshqaruv organlari misolida ko'rib chiqdik. Boshqaruv funksiyalarini bajaruvchi shaxslarga nisbatan real yuridik javobgarlikning mavjud emasligi amaliyotda ko'plab nizolarning sababchisi bo'lib, ularga nisbatan mulkiy javobgarlikning belgilanishi nizolarning oldini olishda ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Чернокальцева, Елена Владимировна. Злоупотребление правом акционерами: понятие и формы : диссертация ... кандидата юридических наук : Санкт-Петербург, 2011.- 177 с
2. Korporativ huquq (o'quv qo'llanma) Umarov B, Atajanov X. Toshkent davlat yuridik universiteti, 2021 y.
3. <https://www.investopedia.com/terms/g/greenmail.asp>
4. Алексеева Анастасия Адаровна, Еремеева Екатерина Сергеевна. Гринмейл (корпоративный шантаж) как форма злоупотребления правом в корпоративных правоотношениях Вопросы студенческой науки Выпуск №12 (40), декабрь 2019
5. Шиткина, И. С. Новый режим совершения крупных сделок // ЭЖ-Юрист. – 2017. № 09